

Odil sudlov akademiyasining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni kasbiy qayta tayyorlash kurslariga o‘qishga kirish bilan bog‘liq eng ko‘p beriladigan savollar

1. Yuridik stajni hisoblashda kollejdagi huquq fani o‘qituvchisi bo‘lgan davr inobatga olinadimi? Javob: *Yo‘q. Inobatga olinmaydi.*

2. O‘qish davlat grant asosida bo‘ladimi yoki kontrakt asosida? Javob: *O‘qish davlat granti asosida bo‘ladi.*

3. O‘qish davrida oldingi ish joyimiz saqlanadimi? Javob: *Kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul qilingan shaxslar ularning egallagan lavozimi butun o‘qish davri mobaynida saqlangan holda asosiy ish joyi bo‘yicha lavozimidan ozod qilinadi.*

4. Xotin-qizlarga qo‘shimcha kvota ajratiladimi? Javob: *Ha. Har bir yo‘nalish bo‘yicha uchtdan qo‘shimcha kvota ajratiladi.*

5. Yuridik ixtisoslik bo‘yicha ish staj yetti yil bo‘lishi uchun bir necha kun yetmasa qabul qilinadimi? Javob: *Yo‘q. Qabul qilinmaydi.*

6. Inshoni rus tilida yozsa ham bo‘ladimi? Javob: *Yo‘q. O‘zbek yoki qoraqalpoq tillarida yozish mumkin.*

7. Suhbatda qanday masalalarga e‘tibor qaratiladi? Javob: *Suhbat talabgorning sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatidan, yurisprudensiyaga oid ta‘limotlar va qoidalardan hamda ixtisoslikka oid qonunchilikdan xabardorligini, shuningdek, uning ma‘naviy-ma‘rifiy dunyoqarashi doirasini aniqlashga e‘tibor qaratiladi.*

8. Ixtisoslik fanidan test savollari tanishib chiqish uchun beriladimi? Javob: *Yo‘q. Berilmaydi. Ixtisoslik fani bo‘yicha test savollariga oid yo‘naltiruvchi mavzular ro‘yxati, qoida tariqasida, kirish sinovlari boshlanishidan bir oy oldin Sudyalar oliy kyengashi va Odil sudlov akademiyasining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqdagi kanallariga joylashtiriladi.*

9. Insho mavzulari beriladimi? Javob: *Insho mavzulari oldindan Qabul komissiyasi tomonidan Sudyalar oliy kyengashi va Odil sudlov akademiyasining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqdagi kanallarida e‘lon qilinadi.*

10. Kirish sinovlari natijalaridan norozi bo‘lganda qancha muddatda shikoyat berish mumkin?

Javob: *Kirish sinovlari bo‘yicha talabgor tomonidan shaxsan berilgan shikoyatlar ularning natijalari Sudyalar oliy kyengashi va Odil sudlov*

akademiyasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi kanallarida e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran 24 soat davomida qabul qilinadi.

11. Kirish sinovlari natijalari bo'yicha shikoyatni boshqa shaxslar orqali ham berish mumkinmi? Javob: *Talabgordan boshqa shaxslar tomonidan yoki belgilangan muddatdan keyin berilgan shikoyatlar ko'rib chiqilmaydi.*

12. Huquqiy mavzudagi insho yozish uchun qancha vaqt beriladi? Javob: *Huquqiy mavzudagi insho 3 (uch)ta mavzu bo'yicha yoziladi. Har bir mavzuga 1(bir) soatdan jami 3(uch) soat vaqt beriladi.*

13. Ixtisoslik fanidan test sinovni rus tilida topshirsa ham bo'ladimi? Javob: *Yo'q. Faqat o'zbek tilida topshiriladi.*

14. Inshoni kiril yoki lotin alfavitida yozish mumkinmi? Javob: *Ha. Mumkin.*

15. Dastlabki sinov bosqichida past ball to'plagan talabgor keyingi sinov bosqichida ishtirok etishi mumkinmi? Javob: *Ha. Ishtirok etishi mumkin.*

16. Tibbiy ma'lumotnomani istalgan shakldagi na'muna bo'yicha to'ldirish mumkinmi? Javob: *Yo'q. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining 2026-yil 19-fevraldagi 2108-sonli qarori bilan tasdiqlangan shakldagi tibbiy xulosa (086-1 shakl) asosida to'ldirish lozim.*

17. Tibbiy xulosa namunasini qayerdan olish mumkin? Javob: *Tibbiy xulosa namunasi Akademiyaning rasmiy telegram kanalida qabul boshlanganligi haqida berilgan e'lon matniga ilova qilingan.*

18. Qurbon hayti bayrami munosabati bilan bayram kunlarida talabgorlardan hujjat qabul qilinadimi? Javob: *Talabgorlarga qulaylik yaratish maqsadida viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar sudyalari malaka hay'atlari hamda Akademiya Qabul komissiyasi 30-may(shanba) kuni faoliyat olib boradi.*